

## O'QUVCHILAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA JADID MA'RIFATPARVARLARINING TA'SIRINI ILMIY VA AMALIY O'RGANISH

*Abdullajonova Dilrabo Hayrullo qizi*

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Pedagogika fakulteti, Pedagogika nazariyasi va tarixi*

*1-bosqich magistratura talabasi*

*E-mail: abdullajonovadilrabo@gmail.com*

**Anotatsiya.** Mazkur maqolada jadid ma'rifatparvarlarining yosh avlodning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishdagi ahamiyati nazariy hamda amaliy nuqtai nazardan atroflicha o'rganiladi. Ularning pedagogik yondashuvlari, ta'lim-tarbiya jarayoniga doir ilg'or konsepsiyalari hamda ushbu boy merosning hozirgi ta'lim tizimida tatbiq etish imkoniyatlari yoritib beriladi. Shuningdek, tadqiqotda jadid namoyandalari, jumladan Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy hamda O'zbekiston Respublikasi novatsion yondashuv.

**Kalit so'zlar.** Jadidchilik, ma'rifat, ma'naviyat, tarbiya, ta'lim tizimi, pedagogik yondashuv, milliy ong, innovatsion usullar

### SCIENTIFIC AND PRACTICAL STUDY OF THE INFLUENCE OF NEW ENLIGHTENMENTALISTS IN IMPROVING THE SPIRITUALITY OF STUDENTS

**Abstract.** This article provides a comprehensive theoretical and practical analysis of the role of Jadid enlighteners in shaping the spiritual worldview of the younger generation. It examines their pedagogical approaches, advanced concepts related to the educational process, as well as the possibilities of applying this rich heritage in the modern education system. In addition, the study includes examples from the works of Jadid representatives, including Abdulla Avloniy and Mahmudxo'ja Behbudiy, as well as speeches by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev, thereby substantiating the relevance and scientific significance of the topic.

**Keywords.** Jadidism, enlightenment, spirituality, upbringing, education system, pedagogical approach, national consciousness, innovative methods

### НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ ПОСЛЕДОВАТЕЛЕЙ НОВОГО ПРОСВЕЩЕНИЯ НА ДУХОВНОЕ РАЗВИТИЕ СТУДЕНТОВ

**Аннотация.** В данной статье всесторонне анализируется роль джадидских просветителей в формировании духовного мировоззрения молодого поколения с теоретической и практической точек зрения. Рассматриваются их педагогические подходы, передовые концепции в области образовательного процесса, а также возможности применения данного богатого наследия в современной системе образования. Кроме того, в исследовании приведены примеры из трудов

*представителей джадидизма, таких как Abdulla Avloniy u Mahmudxo'ja Behbudiy, a также из выступлений Президента Республики Узбекистан Shavkat Mirziyoyev, что обосновывает актуальность и научную значимость темы.*

**Ключевые слова.** *джадидизм, просветительство, духовность, воспитание, система образования, педагогический подход, национальное сознание, инновационные методы*

*Jadidchilik harakati "Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviyatli insonlar etib tarbiyalash – eng asosiy vazifamizdir"*

**Shavkat Mirziyoyev**

## KIRISH

Bugungi globallashuv jadallashayotgan zamonda yoshlarni ma'naviy kamolotga yetkazish, ularning sog'lom fikrlashini rivojlantirish, umuminsoniy hamda milliy qadriyatlarimizni yo'qotmagan holda tarbiyalash ulkan vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli jadid ma'rifatparvarlarimizning boy merosini o'zimiz uchun amaliy ko'nikma sifatida foydalansak natijada ko'plab foydali taraflarini kashf eta olamiz

Jadidlar o'zlarining davrida ilm ma'rifatni birinchi o'rinda ko'rishgan, ta'lim-tarbiya orqali kamolotga erishish ularning dolzarb masalalaridan biri bo'lgan. Ularning bu qarashlari bugungi kunda ham o'zining muhimligini saqlab kelmoqda.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jadidchilik harakati Turkiston hududida yuzaga kelgan bo'lib, uning vujudga kelishi o'sha davrning murakkab tarixiy jarayonlari bilan bevosita bog'liq edi. Bu davrda mintaqa Rossiya imperiyasi tarkibiga qo'shilib, mustamlakachilik siyosati ta'siri ostida qolgan edi. Natijada mahalliy aholi siyosiy jihatdan cheklanib, iqtisodiy va madaniy rivojlanishda sezilarli darajada ortda qolib ketdi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi jadid ma'rifatparvarlarining o'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirishdagi ta'sirini ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Jadidchilik harakati va uning pedagogik ahamiyati ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, Adeeb KHalid jadidchilikni Markaziy osiyodagi

modernizatsion harakat sifatida baholaydi. Uning fikricha, jadidlar jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ilm-fan va ta'limni ilgari surganlar.

O'zbek olimlaridan Begali Qosimov jadid adabiyoti va milliy uyg'onish masalalarini chuqur tahlil qilgan. Shuningdek, Naim Karimov tadqiqotlarida jadidlarning milliy ong va ma'naviy tarbiyaga oid qarashlari yoritilgan.

Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari yoshlar tarbiyasi va axloqiy kamolot masalalarini o'zida mujassamlashtirgan muhim pedagogik manba hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida tarixiylik, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va pedagogik kuzatuv metodlaridan foydalanildi. Ilmiy manba sifatida jadid namoyondalarining asarlari, pedagogik tadqiqotlar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqlari o'rganildi.

O'sha davr ta'lim tizimi ham zamon talablariga javob bermas edi. Maktab va madrasalarda asosan diniy bilimlar o'qitilib, o'qitish jarayoni yodlashga asoslangan holda olib borilgan. Bu esa o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va yangilikka intilish ko'nikmalarining rivojlanishiga to'sqinlik qilardi. Shu sababli ilg'or fikrli ziyolilar mavjud ta'lim tizimini yangilash zaruratini anglay boshladilar.

Boshqa tomondan, dunyoda ilm-fan va texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bir paytda Turkiston jamiyati bu jarayonlardan chetda qolayotgan edi. Yevropa mamlakatlarida sanoat va ilmiy taraqqiyot tezlashib borar ekan, mahalliy aholining bu yutuqlardan xabardorligi juda past edi. Bu holat jamiyatni uyg'otish,

Shuningdek, bu davrda milliy o'zlikni anglash jarayoni ham kuchayib bordi. Ziyolilar xalqni jaholatdan chiqarish, ilm-ma'rifat orqali ongini yuksaltirish va jamiyatni rivojlantirishni o'z oldilariga asosiy vazifa qilib qo'ydilar. Shu tariqa jadidchilik harakati faqat ta'lim sohasidagi islohotlar bilan cheklanmay, balki keng qamrovli ma'naviy va ijtimoiy uyg'onish harakatiga aylandi.

Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakati mustamlakachilik bosimi, eskirgan ta'lim tizimi, ilmiy-texnik taraqqiyotdan ortda qolish va milliy uyg'onish ehtiyoji kabi omillar ta'sirida shakllangan. Aynan shu sharoitlar jadidlarni yangicha fikrlashga, jamiyatni isloh qilishga va yosh avlodni zamonaviy ruhda tarbiyalashga undagan.

Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablari o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Jadidlar tashkil etgan maktablarda faqatgina diniy bilimlarga emas balki hayot uchun zarur bo'lgan zamonaviy ya'ni dunyoviy bilimlar ham o'rgatilgan. Ular bolalar zamon bilan hamnafas bo'lishlari uchun matematika, geografiya, tarix, tabiiy fanlar, ona tili va chet tillari kabi dunyoviy fanlarni ham o'qitishni yo'lga qo'yan. Yana ularda darslar an'anaviy "yodlash" usulida emas interaktiv (faol ishtirokka asoslangan) metodlarga tayanilgan. Asosiy interaktiv usullar: savol-javob yani dialog usuli, bunda o'qituvchi dars davomida o'quvchilarga savol berib, ularni fikrlashga va javob qaytarishga undagan. Bu orqali ular mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirib borishgan. Shuningdek tovush usuli bu "usuli savtiya" deb atalib harflar alohida yodlatilmasdan, tovush orqali o'qish va yozish o'rgatilgan. Bu o'quvchini faol o'qishga jalb qilgan. Yana ular doska (taxta)dan foydalanishgan o'qituvchi doskada yozib tushuntirgan, o'quvchilar esa ko'rib va yozib o'rgangan. Bu ko'rgazmali va amaliy o'qitish usuli bo'lgan. Ularda yana o'zaro o'rgatish usuli ham bo'lgan ba'zan kuchliroq o'quvchilar boshqalarga yordam bergan, bu esa darsni yanada faol qilgan. Qisqasi, jadid maktablari o'quvchini passiv tinglovchi emas, balki darsda faol ishtirok etuvchi shaxsga aylantirishga harakat qilgan. Jadidchilik harakati mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga katta e'tibor qaratgan. Eski ta'lim tizimida ko'proq yodlashga urg'u berilgan bo'lsa, jadidlar o'quvchilarni fikrlashga, savol berishga va voqea-hodisalarni tahlil qilishga o'rgatganlar. Bugungi kunda bu yondashuv yoshlar orasida kreativ fikrlash, yangicha g'oyalar yaratish va muammolarga mustaqil yechim topish ko'nikmalarining shakllanishiga zamin yaratmoqda. Eng asosiysi bu yondashuv hozirgi eng dolzarb o'qitish talabi darajasiga yetib kelgan desak ham mutlaqo yangilishmagan bo'lamiz.

Jadidchilik harakati zamonaviy ta'lim tizimining shakllanishida muhim o'rin egallaganiga yana bir misol shuki, jadid maktablarida o'qitish yangi usullar asosida yo'lga qo'yilib, darslar sodda, tushunarli va qiziqarli tarzda tashkil etilgan. Shuningdek, ular nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratganlar. Bugungi kunda ham ta'lim jarayonida aynan shu yondashuvlar qo'llanilib, o'quvchilarning bilimni samarali o'zlashtirishiga xizmat

qilmoqda. Natijada, yoshlarning keng qamrovli va barkamol rivojlanishi ta'minlanmoqda. Ya'ni bir eng asosiy ajralib turgan yangiligidan biri ular jamiyatda gender tengligi va ijtimoiy adolat tamoyillarini ilgari surgan muhim oqimlardan biri edi. Jadidlar ayollarning erkaklar bilan teng huquqlarga ega bo'lishi, xususan, ta'lim olish imkoniyatidan birdek foydalanishini qo'llab-quvvatlaganlar. Ular har bir inson o'z qobiliyati va salohiyatini erkin rivojlantirishi zarurligini ta'kidlagan. Hozirgi kunda ushbu qarashlar asosida qizlarning bilim olishi, kasb-hunar egallashi hamda jamiyat hayotida faol qatnashishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgan.

Shuningdek, jadid maktablarining ta'lim usullari zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qiyosiy ravishda tahlil qilindi.

Dastlab jadidlar yangi siyosiy tuzumdan muayyan darajada ijobiy o'zgarishlar kutgan edilar. Ular jamiyatni yangilash, savodsizlikni kamaytirish hamda ta'lim tizimini rivojlantirish yo'lida sovet hokimiyati bilan hamkorlik qilishga intildilar. Ammo vaqt o'tishi bilan jadidlarning milliy uyg'onish, erkin fikrlash va mustaqil taraqqiyotga oid qarashlari hukmron mafkura bilan to'qnash kela boshladi. Natijada ular "ishonchsiz" qatlam sifatida baholanib, turli siyosiy bosim va ta'qiblarga duchor bo'ldilar.

Ayniqsa, katta qatag'on davrida (Katta qatag'on— bu 1930-yillarda Sovet Ittifoqida yuz bergan siyosiy repressiyalar davridir. U markazlashgan hokimiyat tomonidan "xalq dushmanlari" deb e'lon qilingan shaxslarni yo'qotish orqali jamiyatni nazorat ostiga olish siyosatining eng keskin bosqichi bo'lgan. O'zbekiston va butun Markaziy Osiyoda minglab ziyolilar, siyosatchilar va oddiy fuqarolar qurbon bo'lgan)jadid ziyolilariga nisbatan zulm yanada kuchaydi. Ko'plab ma'rifatparvarlar hibsga olindi, surgun qilindi yoki qatl etildi. Jumladan, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ko'zga ko'ringan ziyolilar ham bu ta'qiblardan chetda qolmadi. Ularning ilmiy va adabiy merosi man etilib, nomlari uzoq vaqt davomida oshkora tilga olinmadi. Shu tariqa jadidchilik harakati majburan to'xtatilib, uning rivojlanishiga jiddiy putur yetkazildi.

Bu jarayon faqat ayrim shaxslar taqdiriga emas, balki butun jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Chunki jadidlar zamonaviy bilimga ega, keng fikrlaydigan va xalq manfaatini ko'zlaydigan qatlam edi. Ularning safdan

chiqarilishi natijasida jamiyatning tabiiy rivojlanish sur'ati pasaydi, ma'naviy va intellektual yuksalish jarayoni sekinlashdi.

Shunga qaramay, jadidlarning ilg'or g'oyalari butunlay yo'qolib ketmadi. Ular ochiq targ'ib qilinmagan bo'lsa-da, xalq xotirasida saqlanib qoldi va asta-sekin keyingi avlodlarga ham yetib bordi. Mustaqillik davriga kelib esa jadidlar merosiga bo'lgan e'tibor qayta tiklanib, ularning nomi oqlanib, faoliyati chuqur o'rganila boshlandi.

Mazkur tarixiy jarayondan chiqariladigan muhim xulosa shundan iboratki, jamiyat rivoji uchun erkin fikrlovchi, bilimli va fidoyi insonlar muhim ahamiyatga ega. Agar fikr erkinligi va ma'rifat rivojiga to'sqinlik qilinsa, bu jamiyatning orqada qolishiga olib keladi. Jadidlar taqdiri esa bugungi avlodni o'z tarixini anglashga, ilmga intilishga va milliy merosni qadrlashga undovchi muhim saboq bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, jadidchilik harakatining bostirilishi og'ir tarixiy sinov bo'lganiga qaramay, uning ma'rifatparvarlik ruhi hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda va yoshlar uchun muhim ibrat manbai bo'lib qolmoqda.

### NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jadid ma'rifatparvarlari yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda ilm-fan va tarbiyani asosiy omil sifatida baholaganlar.

Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usul jadid maktablarida: dunyoviy fanlar o'qitish, interaktiv metodlardan foydalanish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish, o'quvchilar faolligini oshirish kabi ilg'or pedagogik yondashuvlar qo'llanilgan.

Ayniqsa, savol-javob, dialog, tovish usullari hamda ko'rgazmali ta'lim metodlari o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Abdulla Avloniy tarbiya masalasini jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida baholab: "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir" --- deya ta'kidlagan. Bu fikr tarbiya masalasining strategik ahamiyatini ko'rsatadi. Abdulla Avloniy tarbiyaning inson hayotidagi eng muhim, hatto hal qiluvchi omil ekanini juda keskin va ta'sirli tarzda ifodalaydi.

Mazmuniga kengroq qaraydigan bo'lsak, bu jumla tarbiya inson taqdirini butunlay belgilab berishi mumkinligini anglatadi. Avvalo, "tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot" deyilganda, tarbiya insonning yashab qolishi yoki ma'naviy jihatdan yemirilishini belgilashi nazarda tutiladi. To'g'ri tarbiya olgan inson jamiyatda o'z o'rnini topadi, foydali shaxsga aylanadi. Noto'g'ri tarbiya esa uni yo'ldan ozdirib, jamiyat uchun ham, o'zi uchun ham zararli holatga olib kelishi mumkin. "Yo najot, yo halokat" degan qism esa tarbiyaning insonni qiyinchiliklardan qutqarishi yoki aksincha, uni inqirozga yetaklashini bildiradi. Yaxshi tarbiya — bu insonni halol mehnatga, to'g'ri qarorlar qabul qilishga, sabr va mas'uliyatga o'rgatadigan najot yo'lidir. Tarbiyasiz yoki noto'g'ri shakllangan inson esa xatolar, illatlar va noto'g'ri yo'llar tufayli halokat sari borishi mumkin. "Yo saodat, yo falokat" qismi esa yanada chuqurroq ma'noga ega. Saodat — bu insonning baxtli, tinch va barakali hayot kechirishi. Bunday hayotning asosi to'g'ri tarbiyadir. Falokat esa insonning nafaqat o'zi, balki atrofida hayotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadigan og'ir oqibatlarni bildiradi. Demak, tarbiya faqat shaxsiy emas, balki ijtimoiy taqdirni ham belgilaydi. Umuman olganda, bu fikr shuni uqtiradiki, tarbiya inson hayotining poydevoridir. Ilm, kasb, boyluk yoki mavqe keyin kelishi mumkin, lekin agar tarbiya mustahkam bo'lmasa, ular ham barqaror bo'la olmaydi. Shu sababli tarbiya oilada, maktabda va jamiyatda eng ustuvor masala bo'lishi kerak.

Mahmudxo'ja Behbudiy esa ilmning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini quyidagicha ifodalaydi: "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur". Mazkur fikr bugungi zamonaviy ta'lim tizimi bilan to'la mos keladi. u insonning zamonaviy hayotda o'z o'rnini topishi, jamiyatda barqaror yashashi va taraqqiyotga erishishi uchun ilm-fan nihoyatda zarurligini ta'kidlaydi. Bu jumlaning asosiy ma'nosi shuki, inson faqat orzu yoki niyat bilan emas, balki aniq bilim va amaliy ko'nikmalar bilan hayotda mustahkam turadi. "Dunyoda turmoq" iborasi oddiy yashash emas, balki jamiyatda o'z mavqeiga ega bo'lish, mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va hayot sinovlaridan o'ta olishni anglatadi. Bularning barchasi esa ilm va fan orqali amalga oshadi. Dunyoviy fanlar — matematika, tibbiyot, fizika, kimyo, iqtisod, texnika va boshqa sohalar — inson hayotini yengillashtiradi va rivojlantiradi. Masalan, tibbiyot ilmi inson salomatligini asraydi,

texnika va muhandislik fanlari turmush darajasini oshiradi, iqtisodiy bilimlar esa hayotiy barqarorlikni ta'minlaydi. Imsiz inson esa zamonaviy jamiyatda ko'p qiyinchiliklarga duch keladi, chunki dunyo doimiy ravishda rivojlanib boradi. Shuningdek, bu fikr ilmni faqat diniy yoki nazariy bilimlar bilan cheklab bo'lmasligini ham anglatadi. Inson hayotda muvaffaqiyatga erishishi uchun real hayotga tatbiq etiladigan, foyda keltiradigan bilimlarni ham egallashi zarur. Chunki dunyo qonuniyatlari o'zgarib boradi va unga moslashish uchun yangiliklarni o'rganish talab etiladi. U o'zining bu fikri orqali bizga shuni uqtiradi: ilm — bu hayot tayanchi, taraqqiyot kaliti va insonni zamon bilan hamnafas qiladigan eng muhim vositadir. Imsiz jamiyat esa rivojlana olmaydi, ilmli jamiyat esa doimo oldinga intiladi.

Bugungi kunda ham yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyev quyidagilarni ta'kidlaydi: "Agar ta'lim va tarbiya tizimini mukammal yo'lga qo'ymasak, kelajagimizni boy beramiz", – deya qayd etadi. Ta'lim insonning aqlini rivojlantirsa, tarbiya uning xarakteri va ma'naviyatini shakllantiradi. Bu ikki omil bir-birisiz to'liq natija bermaydi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ham ta'lim va tarbiyani ajratib bo'lmasligini ta'kidlagan. Demak, mukammal tizim deganda faqat bilim berish emas, balki komil insonni shakllantirish nazarda tutiladi. Bu fikr bizga shuni uqtiradi: kelajak tasodif emas, u bugungi ta'lim va tarbiya sifatining natijasidir. Agar biz bu tizimni e'tiborsiz qoldirsak, eng katta yo'qotish — kelajak avlod va davlat taraqqiyoti bo'ladi.

## MUHOKAMA

Jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlari bugungi ta'lim tizimi uchun ham dolzarb hisoblanadi. Chunki zamonaviy pedagogika ham o'quvchini mustaqil fikrlovchi, kreativ va faol shaxs sifatida shakllantirishni asosiy maqsad qilib qo'yadi.

Jadid maktablarida qo'llangan interaktiv metodlar hozirgi innovatsion pedagogik texnologiyalarning dastlabki ko'rinishlari sifatida baholanishi mumkin. Ayniqsa, o'quvchilarni faol fikrlashga undash, amaliy mashg'ulotlarga e'tibor

qaratish hamda ta'limni hayot bilan bog'lash kabi yondashuvlar bugungi ta'lim konsepsiyalariga mos keladi.

Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Agar ta'lim va tarbiya tizimini mukammal yo'lga qo'ymasak, kelajagimizni boy beramiz." mazkur fikr jadidlarning ma'rifatparvarlik g'oyalari bugungi davlat siyosatida ham davom etayotganini ko'rsatadi.

## XULOSA

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Jadid ma'rifatparvarlariyoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida baholangan.

2. Jadid maktablarida qo'llanilgan interaktiv metodlar bugungi zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashadi.

3. Jadid pedagogikasi o'quvchilarda mustaqil fikrlash, milliy ong va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

4. Ularning ilm ma'rifatga oid qarashlari bugungi ta'lim tizimini takomillashtirishda metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

5. Jadid merosi ta'lim dasturlari va tarbiyaviy faoliyatga keng joriy etish yoshlar ma'naviy kamolotini ta'minlashga xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006.
3. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999.
4. Jadidchilik tarixi. – Toshkent: Akadernashr, 2018.
5. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.
6. Munavvarqori Abdurashidxonov. Pedagogik qarashlar. – Toshkent: Fan, 2003.
7. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
8. Begali Qosimov. Milliy uyg'onish va jadid adabiyoti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
9. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
10. Shavkat Mirziyoyev. Nutqlar va ma'ruzalar to'plami. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
11. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
12. Cho'lpon. Asarlar to'plami. – Toshkent: Sharq, 2003.
13. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.